

## BOSHLANG'ICH SINFLARDA OLINADIGAN DIKTANTLAR VA ULARNING TURLARI. DIKTANT OLISH METODIKASI

Yo'ldosheva Zuxra Olimjon qizi

*Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilarini diktantlar orqali insho, bayon yozishga tayyorlash haqida umumiy ma'lumot berilgan. Shuningdek, maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan olinadigan diktantlar va uning turlari, ulardan qanday foydalanish, qanday vaqtda qo'llash misollar yordamida ochib berilgan. Va maqolada Boshlang'ich sinf o'quvchilaridan olinadigan diktant turlari orqali o'quvchilar qanday yutuqlarga erishishi, bu turdagi diktantlarni yozishda o'quvchilar qanday xatolarga yo'l qo'yishlari ochib berilgan. Shuningdek boshlang'ich sinf o'quvchilaridan diktantlarni olish tahlil qilib berilgan.*

**Kalit so'zi:** *Metodika, Ona tili o'qitish metodikasi, Savod o'rgatish metodikasi, so'z, gap, matn, diktant, ta'limiy diktant, tekshiruv diktant, o'z diktant, yoddan yozuv diktanti, izohli diktant, saylanma diktant, erkin diktant, rasm diktant, lug'at diktant, ijodiy diktant.*

**Аннотация:** *В данной представлена общая информация о подготовке учащихся классов к сочинений и высказываний под диктовку. Также в статье с помощью примеров раскрывается диктант младших школьников и его виды, как и когда их использовать. А в статье раскрывается, как учащиеся добиваются успеха с помощью видов диктантов, взятых у учащихся младших классов, и какие ошибки допускают учащиеся при написании этого вида диктантов. Также анализируется выполнение диктантов у учащихся младших классов.*

**Ключевые слова:** *Методика, Методика обучения родному языку, Методика обучения грамоте, слово, предложение, текст, диктант, учебный диктант, проверочный диктант, собственный диктант, диктант по памяти, диктант с пояснениями, выборочный диктант, свободный диктант, диктант с картинками, словарный диктант, творческий диктант.*

**Abstract:** *This article provides general information on preparing primary school students to write essays and statements through dictation. Also, in the article, dictation from primary school students and its types, how to use them, and when to use them are revealed with the help of examples. And the article reveals how students achieve success through dictation types taken from elementary school students, and what mistakes students make when writing*

*this type of dictation. Taking dictation from elementary school students is also analyzed.*

**Key words:** *Methodology, Mother tongue teaching methodology, Literacy teaching methodology, word, sentence, text, dictation, educational dictation, checking dictation, own dictation, dictation from memory, dictation with explanations, selective dictation, free dictation, picture dictation, vocabulary dictation, creative dictation.*

Boshlang'ich sinflarda ona tilining dastlabki bosqichlari o'rgatilib boriladi. Bu degani Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan ona tili yuqori sinflarda o'rgatiladigan ona tili fanining poydevori hisoblanadi. Shuningdek, Boshlang'ich sinflarda o'rgatiladigan va o'quvchilar bilimni mustahkamlash uchun olinadigan diktantlar ham yuqori sinflarda o'rgatiladigan va olinadigan insho, bayonlarning ham poydevori hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda diktant olish o'quvchilarni o'qish va yozishga o'rgatish, mustaqil va erkin fikrlashga, nutqini o'stirishga tafakkur qilishga o'rgatadi. Boshlang'ich sinfning 1-4 sinf ona tili dasturi bo'limi va mavzulariga muvofiq turli hajmdagi matnlar kiritilgan. Boshlang'ich sinflarda „ Diktant- eshitib idrok qilingan so'z, gap, matni yozishdir " deb o'rgatiladi. Shuningdek, Boshlang'ich sinflarda diktantning 8 ta turi nazorat, mavzu, bo'limlarni mustahkamlash maqsadida o'quv yili davomida o'qituvchi tomonidan o'quvchilardan olib boriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni diktant yozishga o'rgatish savod o'rgatish davridanoq boshlab o'rgatib kelinadi. Unda o'quvchilar o'qish va yozishni o'rganadilar. Bu orqali o'quvchilarni eshitish va ko'rish qobiliyati rivojlanib boradi. Diktant yozishga o'rgatish ishlari avval ko'chirib yozishdan boshlamadi. O'quvchilar doskadan va kitobdan ko'chirib yozishni o'rganadilar. So'ng o'quvchilarga bo'g'in, so'z, gap va matni eshitib yozish ishlari o'rgatib boriladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar diktant yozish jarayonlarida eng ko'p yo'l qo'yadigan xatolari tovushlarni farqlash, bo'g'in ko'chirish, gapni yakunlash jarayonlari hisoblanadi. O'quvchilarni tovushlarni farqlashga o'rgatish „Alifbe"davrida 1,2,3 bo'g'inli so'zlarni yozish davridan boshlab p'rgatib kelinadi. Shuningdek o'quvchilarga bo'g'in ko'chirishni ham o'rgatish „Alifbe" davridan boshlab o'rgatiladi. Unda o'quvchilar so'zlarni o'qish jarayonida so'zlarni to'g'ri bopg'inga bo'lib o'qishdan boshlanadi. So'ng 1,2,3 bo'g'inli so'zlarni bo'lishda chiziqcha bilan bo'lib yozish (bog'-bon, ki-tob, lo-la-lar, bo-la-lar, gul-to-ji-xo'-roz)kabi so'zlarni topg'ri bo'g'inga bo'lish ishlari o'rgatib boriladi. Yana bir diktant yozishda yo'l qo'yiladigan xatolardan biri gap yakunlash hisoblanadi. Boshlang'ich sinf diktant aytish jarayonida o'qituvchi nutqiga katta e'tibor beriladi. P'qituvchi diktantda gap o'qish jarayonida agarda

gap ichida yarim nafas to'htab o'qisa vergul (,) agarda bir nafas to'xtab o'qisa gap yakunlangan hisoblanib nuqta (.)belgisi qo'yilishini Boshlang'ich sinf o'quvchilariga o'rgatib, uni o'quvchining o'zi ham amalda bajarib borishi zarur hisoblanadi. 1-sinfda diktant yozishga o'rgatish o'quvchilar bir necha tovushlarni o'rganib olganlaridan so'ng, ular 2 yoki 3 tovushdan iborat bo'lgan so'zlarni eshitib yozishga o'rgatiladi. Boshlang'ich sinf uchun imloni o'rgatishda diktant yozdirib turish o'quvchilar savodxonligini oshirishga yordam beradi. Bunday diktant yozish o'quvchilar ruhiy holati bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon Boshlang'ich sinf o'quvchilarida bir oz murakkab va uni tezda amalga oshirish qiyin kechishi mumkin. Shuning uchun diktantlar Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos, qiyin bo'lmagan, mazmunan, hajm jihatdan to'g'ri tanlangan bo'lishi lozim. Boshlang'ich sinf diktant yozish jarayonida o'quvchilarda ma'lum psixologik holatlar yuzaga kelishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi diktant olishdan oldin o'quvchilarning ruhiy holatiga alohida e'tibor berishi kerak. Bunda o'qituvchi o'quvchilarni ruhlantirishi lozim. Masalan, „Men diktant yoza olaman.“, „Bu menjng qo'limdan keladi.“, „Men diktantni chiroyli va to'g'ri yozib, a'lo baho olaman.“kabi ruhlantirishi lozim hisoblanadi. Boshlang'ich sinfda diktant yozdirishda dastlab doskaga sana va matn sarlavhasi qo'yiladi. So'ng o'qituvchi o'z nutqiga e'tibor bergan holda shoshmay, o'quvchilarga tushunarli qilib matnni o'qib beradi. Diktant yozishga kirishilganda dastlab o'qituvchi gapni to'liq o'qib beradi. So'ng so'zma-so'z aytib turadi. Bunda hat bir so'zni o'qish o'quvchilarni so'zni yozishga ulgurishiga qarab o'qib boriladi. Agarda diktant yozish jarayonida ko'p bo'g'inli yoki tushunarsiz so'zlar uchrasa, o'qituvchi bu so'zlarni doskaga yozib qo'yishi mumkin hisoblanadi. Diktantni yozib bo'g'ach o'quvchilar diktantni bir marta o'qib chiqib, o'zlari yo'l qo'yg'an xatolarini tuzatishga ruhsat beriladi. So'ng diktantlar yig'ib olinadi. Diktantlarni yig'ib olish jarayonida ham eng birinchi topshirga o'quvchilarni maqtab qo'yish, ularni qolgan o'quvchilarga o'rnak qilib ko'rsatish, o'quvchilarni diktant yozishga qiziqishini oshiradi.

Boshlang'ich sinflarda „Diktant -eshitib idrok qilingan so'z, gap, matnni yozishdir.“ deb o'rgatiladi. Shuningdek boshlang'ich sinflardan diktant olish jarayonida asosan diktantlarning 8 ta turidan foydalaniladi. Boshlang'ich sinflarda diktant olinish maqsadiga ko'ra 2 turda yozdiriladi. Ular quyidagilar hisoblanadi:

1. Ta'limiy diktant.
2. Tekshiruv diktanti.

Ta'limiy diktant o'quvchilardan o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida olinadi. Ta'limiy diktantni olish uchun alohida dars soati ajratilmaydi. U yozuv darsining opzida huddi mashq sifatida olib ketiladi. Uni

Yozishda yozuv darslarining bir necha daqiqasini ajratib olish kifoya qiladi. Bu diktant orqali o'quvchilar o'tilgan mavzulardan olgan bilimlarini yana bir marta mustahkamlab oladilar. Boshlang'ich sinflarda diktantlarning 8 ta turi quyidagi ko'rinishlarda va maqsadlarda olinadi:

Ta'kidiy diktant Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilib olgan qoidalari va egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llay olayotganligini tekshirish maqsadida o'tkaziladi. Unda dastlab diktant o'qituvchi tomonidan o'qib beriladi va keeakli sopzlarni imloviy yozishda aansay yozishlari va yozishda nimalarga e'tibor berishlari lozimligi aytib o'tiladi. Masalan, ta'kidiy diktant quyidagi matn asosida o'tkazilganda, uni olish quyidagi tartibda olib boriladi.

### KIM ODOBLI?

-Oyi, Laylk katta yo'lda o'ynaydi. Oydin katta yo'lda o'ynamaydi. „Akam, ukan bilan maydonda o'ynayman", -deydi u. -Oyi, Oydin odoblimi Laylo odobli.

Bunda matn dastlab ppqituvchi tomonidan o'qib beriladi. Sopng matnda so'z tarkibida ketma-ket kelgan bir xil undoshlarning imlosi haqidagi qoida eslatiladi. So'ng o'quvchilar qoidani eslab uni aytadilar va unga misollar keltiradi. Bo'g'in ko'chirishda esa bir undosh birinchj bp'g'in bilan ikkinchi undosh ikkinchi bo'g'in bilan ajratib yozilishi haqidagi qoida o'qituvchi tomonidan eslatib o'tiladi. So'ng diktant yozishga kirishiladi. Diktant yakunida o'quvchilar matnni o'qib chiqib yo'l qo'ygan xatolarini tekshiradilar va diktantlar o'qituvchi tomonidan yig'ib olinadi.

O'z diktant yoki yoddan yozuv diktantida yozilishi lozim bo'lgan matnni oquvchilar opqituvchi rahbarligida yodlaydilar yoki o'zlari o'qib idrok qilib yodlaydilar, keyin o'zlari matnni mustaqil yozadilar. O'quvchilar bu diktant turini yozishni juda yaxshi ko'radilar. Matn dastlab doskaga yozib qo'yiladi va o'qituvchi o'qib beradi. Masalan,

Jo'ja

Jo'ja juda qiziq,

Oyoqlari qiltiriq,

Chiqishibdh tuxumdan,

Oppoq kichkina xumdan.

So'ng o'quchilar doskadagi matnni yodlashiga vaqt beriladi. O'quvchilar matnni yodlagach o'qituvchi doskadagi matnjj berkitadi. So'ng o'quvchilar bu matndan tushunganlarini erkin o'z hotirasiga tayangan holda yozib beradilar. O'quvchilar yozib bo'lgach o'z xatolarini doskadagi matnga qarab tekshirib oladilar va diktant o'qituvchi tomonidan yig'ib olinadi.

Izohli diktant-bunda o'quvchilar diktantni yozib bo'lganlaridan so'ng , ularni bo'g'in, tovush, harf jihatdan tahlil qiladilar. Bund a o'quvchilar matnni yozib bo'lgach quyidagicha tahlil qiladilar:

## Samarqand

Samarqand-dunyodagi mashhur shahar. U yerda qadimiy obidalar ko'p.

„Samaeqand-3 ta bo'g'in birinchi bo'g'inda s, a, ikkinchi bo'g'inda m,a,r uchinchi bo'g'inda q,a,n,d tovushlari bor. So'zimizda oltita undaosh, uchta unli harf bor. Oxirgi „d" tovushi „t" tovushi tarzida talaffuz qilinadi, lekin yozuvda „d" tarzida yoziladi"-deb izohlanadi.

Saylanma diktantda o'quvchilar berilgan matnning hammasini yozmaydilar. Faqatgina o'qituvchi topshirig'iga mos qisminigina yozadilar. Bu quyidagi ko'rinishda amalga oshiriladi:

### BIRGALIKDA

Akrom, Karim, Barno, Lobar bir bo'lib raketa yasadi. Akrom karton olib keldi. Barno ulardan raketa bo'laklarini tayyorladi. Karim bilan Lobar bu bo'laklarni yelimpladilar.

1-sinflarda „Bosh harfda yozilgan so'zlarni yozing“ , 2-sinflarda „Narsa-buyumni bildirgan so'zlarni yozing", 3-sinflarda „Talaffuzda tushib qoladigan undoshlar qatnashgan so'zlarni yozing", 4-sinflarda „Sp'z turkumlaridan fe'llarni ajratib yozing" kabi topshiriqlar asosida ularga javob yozadilar. Bu diktant o'quvchilarda ziyraklikni oshiradi.

Erkin diktantda matn o'qituvchi tomonidan 1 marta o'qib beriladi. So'ng o'quvchilarning o'zlari o'qishlariga vaqt beriladi. Sopng o'quvchilarga matn mazmunini buzmaganda , gapning shaklini o'zgartirib yozish imkoni beriladi. Masalan, „ Men bugun erta turdim. Yuz -qo'llarimni yuvdim. Nonushta qildim va maktabga ketdim." kabi yozilgan matnning mazmunini o'quvchilar „Men bugun erta turib yuvindim. Nonushta qilib, maktabga ketdim" deb ifodalashlari mumkin bo'ladi. Bunsana o'quvchi ham erkin fikrlaydi ham uning so'z boyligi oshadi. Bu diktant o'quvchilarni bayon yozishga tayyorlaydi.

Rasm diktantda o'qituvchi tomonidan doskaga hamma o'quvchilarga ko'rinadigan qilib rasm ilib qo'yiladi. O'quvchilar bu rasmlarni ko'rish orqali, imlo qoidalariga rioya qilgan holda ularning nomlarini yozishadi. Bunday diktantda o'quvchilarning so'zlarni to'g'ri yozishni egallaganliklari va qanday o'zlashtirganligini sinash maqsadida o'tkaziladi.

Lug'at diktantda ona tili darslarida o'quvchilarning bir mavzu yuzasidan o'rganilgan so'z , uning imlo qoidalarini qanchalik o'zlashtirganliklarini sinash va tekshirish maqsadida olinadi. Lug'at diktantdan istalgan mavzuni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin. Masalan, „Ketma-ket kelgan bir xil undoshlar qatnashgan so'zlarni yozing", „Bosh harfli so'zlarni yozing" kabi mavzularni mustahkamlashda foydalanish mumkin hisoblanadi. Bu quyidagi ko'rinishda olib boriladi:

Lola, Samarqand, Barno, Akmal, Toshkent, Jasur, Zilola, Shohsanam, Saida, Hasan, Eldor, Jamshid.

Ijodiy diktantdan o'quvchilarga o'tilgan imlo qoidalarinh o'zlashtirgani va yozuvda to'g'ri qo'llashini, ularni mustaqil va ularni erkin fikrlay olishga o'rgatish, og'zaki va yozma nutqini shakllantirish maqsadlarida foydalaniladi. Bu diktantda o'quvchilarga so'z va so'z birikmalari yoki matn uchun ma'lum bir mavzu beriladi, o'quvchilar bundan foydalangan holda ijod qilib matn tuzadilar. Ijodiy diktantda rasmlardan ham foydalansa bo'ladi. Unda rasmda ro'y berayotgan voqea hodisalar asosida o'quvchilar o'zlari ijod qilgan holda easm asosida matn tuzadilar.

Tekshiruv diktantida o'quvchilar o'quv dasturining biron- bir bo'limini o'rganib bo'lgach, mashqlar bilan mustahkamlagach, o'quvchilar bu bo'limni qanchalik egallab olganliklarini tekshirish maqsadidaolinadi. Bu diktant matnlari shu sinf o'quvchilarining yoshini hisobga olib tanlanishi kerak. Matn tarkibida imlosi qiyin bo'lmagan so'zlar ishtirok etgan bo'lishi, tinish belgilari ko'qroq ishlatilgan bo'lishi zarur. Bu diktantni olganda o'qituvchi matn orqali o'quvchilarning olgan bilimlarini bilib olishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytamanki, bugungi kunda Boshlang'ich sinf o'quvchilarini diktant va uning turlaridan foydalangan holda bilimlarini tekshirish va mustatahkamlash, ularni erkin fikrlashga, zehnini va so'z boyligini oshirishga yordam berish kerak. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilardan diktantning bu turinolinish orqali o'qituvchilar o'quvchilarda insho va bayonning poydevotini shakllantirib borishar ekan. Aslida diktantlar o'quvchilarni insho va bayonlarni yozishga, bilimlarini mustahkamlashgagina emas balki o'quvchilarni erkin, mustaqil fikrlashlari, ularning so'z boyligini o'shirisb uchun ham zamin yaratadi. Boshlang'ich sinfda o'qituvchi o'quvchilarning chiroyli yozish malakasigagina emas, balki diktant tarkibida yozgan so'z, so'z birikmalari, gaplarning imlosiga, lug'aviy ma'nosiga ham o'z e'tiborini qaratishi lozim ekan. O'qituvchi o'quvchilardan diktantni olishdan asosiy maqsad o'tilgan mavzu, bo'limlarni mustahkamlash, o'quvchilarnin bilimlarini tekshirish hisoblanadi. Biroq o'qituvchi o'quvchilardan diktantni to'g'ri yozish malakasini talab qilishdan oldin, avvalambor o'zi birinchi navbatda o'quvchilarga imlo qoidalarini yetarlicha o'rgatgan bo'lishi, diktantni tanlashda o'quvchilar yoshini, psixologiyasini, ruhiy holatini hisobga olgan holda tanlamog'i zarur deb hisoblayman. Chunki o'quvchilar diktant davomida o'zlarini ruhiy jihatdan erkin qo'ygan holda o'z bilimlariga tayanib diktant matnini yozadilar. Bunday jarayonda ular o'zlari bilmagan, tushunmagan so'zlar va so'z birikmalariga duch kesa, ularnjng ruhiy holatida o'zgarishlar yuz bera boshlashi mumkin. Bu esa ularni diktantni anglab, ongli yozishlariga

to'siq bo'lishi mumkin. Shuning uchun Boshlang'ich sinflarda o'qituvchilar o'quvchilarning emas, balki o'zlarining bilimlariga tayanib ish ko'rishlari lozim. Buning asosiy sababi o'quvchilar Boshlang'ich sinflarda faqatgina o'qituvchisi o'rgatganinigina o'rganib, ilg'ab oladilar holos. Boshlang'ich sinf o'qituvchilari o'quvchilariga nimani o'rgatsa o'quvchilar shuni egallaydilar deb hisoblayman. Shuning uchun birinchi navbatda Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, ko'nikma, malakasi yaxshj bo'lmog'i lozim

#### FOYDALANILGAN DABIYOTLAR RO'YHATI:

1. K. Qosimova ,, Ona tili o'qitish metodikasi " Toshkent ,, NOSHIR " 2009
2. Q.Abdullayeva ,, Diktantlar to'plami " Toshkent (VEKTOR-PRESS ) 2011
3. ,, Novda Edutainment " Toshkent-2023 ( Ona tili darsliklari )
4. ,, Novda Edutainment " Toshkent-2023 ( ,,Alifbe" kitobi )
5. w.w.w.uz
6. In.Study.uz
7. Lex.uz